



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
kimyo fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 9-sinflar uchun
II chorak

DARS

ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf kimyo fanidan II chorak
 taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Uglerodning eng muhim birikmalari	1		
2.	Karbonat kislota va karbonatlarning xossalari	1		
3.	1-laboratoriya ishi. Karbonatlar va gidrokarbonatlarning xossalari va bir-biriga aylanishi bilan tanishish. Karbonat ioniga xos sifat reaksiya	1		
4.	1-amaliy ish. Uglerod (IV)-oksid hosil qilish va uning xossalari bilan tanishish.	1		
5.	Kremniy. Kremniyning davriy sistemadagi o‘rni va atom tuzilishi 2-laboratoriya ishi. Tabiiy silikatlarining namunalari bilan tanishish	1		
6.	Kremniyning xossalari. Muhim birikmalari	1		
7.	Silikat sanoati	1		
8.	3-laboratoriya ishi. Shishaning turlari va ularning tarkibi bilan tanishish. “Shisha va undan yasalgan mahsulotlar” to‘plami bilan tanishish va ishlash	1		
9.	3-Nazorat ishi	1		
10.	Metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishi 4-laboratoriya ishi. Metallar namunalarini ko‘zdan kechirish	1		
11.	Qotishmalar 5-laboratoriya ishi. Qotishmalarning namunalari bilan tanishish	1		
12.	Metallarning fizik va kimyoviy xossalari 6-laboratoriya ishi. Tuzlar eritmalari bilan metallarning o‘zaro ta’siri	1		
13.	ChSB – 2 (40 ball)	1		
14.	Metallar korroziyasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Uglarodning eng muhim birikmalari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: atrofimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko'plab sohalarda rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o'rgatish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

sog'lom turmush tarziga amal qilishda kimyoviy ishlab chiqarish mahsulotlari haqida tushunchaga ega bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

o'rganilgan bilimlar asosida kundalik turmushda foydalaniladigan jarayonlardagi hisoblashlarni bilish. Kimyo fani sohasida inson hayot faoliyatida uning mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Uglarodning noorganik birikmalari tabiatda keng tarqalgan bo'lib, ko'plab minerallar, tog' jinslari, havo tarkibidagi kar bonat angidrid tarzida uchraydi. Uglarodning noorganik birikmalaridan ayrimlari xalq xo'jaligining turli sohalari uchun muhim xomashyo bo'lib hisoblanadi. Uglarodning organik birikmalarisiz inson hayotini tasavvur qilish qiyin. Ulardan eng muhimlari uglarodning vodorod bilan hosil qilgan birikmalari uglevodorodlar deb ataladi va ular turlicha tarkibga ega bo'ladi. Biz ularni organik kimyo kursida o'rganamiz. Is gazi qon tarkibidagi gemoglobin bilan kislorodga qaraganda oson birikadi.

Buning natijasida organizmning kislorod bilan ta'minlanishi qiyinlashadi. Bunday holatda uzoq vaqt is gazidan nafas olinsa, o'linga olib keladi.

Is gazi kuchli zaharli gaz!

Uglerodning bu oksididan sano atda metallarni metall oksidlaridan qay tarib olishda, sun'iy yoqilg'ilarning tarki biy qismi sifatida, organik sintezda foydalaniladi.



Sanoatda ohaktoshni kuydirib olinadi:



Tabiatda hayvon va o'simliklarning nafas olishida, organik qoldiqlarning chirishida, yonish jarayonlarida hosil bo'ladi. Karbonat angidrid kislotali oksid xossasini namoyon qiladi.

U suvda erib, karbonat kislota hosil qiladi:

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash


1. Karbonat angidrid tabiatda qanday hosil bo'ladi?
2. Uglerod oksidlarining qo'llanish sohalarini aytib bering.

3. Is gazining 5,6 l(n.sh.) hajmi yonganda qancha miqdor issiqlik ajralib chiqadi?

4. "Quruq muz"ni ishlatilish sohalarini ayting va jadval tayyor lang.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Karbonat kislota va karbonatlarning xossalari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: atrofimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko'plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o'rgatish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan kimyoviy elementlar, moddalar, birikmalar haqida og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'yish, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va jamoaviy hamkorlikda ishlash.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan anorganik, organik birikmalar, ular asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini haqidagi ma'lumotlarni izlab topish, ularni saralash va ulardan foydalanishda axborot xavfsizligi qoidalariga amal qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

Karbonat kislota va karbonatlarning o'ziga xos kimyoviy xossalari qanday?



Karbonat kislota H_2CO_3 – beqaror modda bo'lib, faqat suvli eritmalardagina mavjud bo'la oladi:



H_2CO_3 — kuchsiz, ikki negizli kislota. Suvli eritmasida ikki bosqichda dissotsiatsiyalanadi:



Karbonat kislota faqat ishqoriy va ishqoriy-yer metallari oksidlari va gidroksidlari bilan ta'sirlashadi. Uning o'rta tuzlari karbonatlar: K_2CO_3 – kaliy karbonat, CaCO_3 – kalsiy karbonat; nordon tuzlari gidrokarbonatlar: KHCO_3 – kaliy gidrokarbonat, $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ – kalsiy gidrokarbonat deb ataladi.



Kislota mo'l bo'lganda nordon tuz hosil qiladi:




Ishqoriy metallar va ammoniy karbonatlar, barcha gidrokarbonatlar suvda erib, gidrolizga uchraydi; boshqa karbonatlar suvda erimaydi.

Kuchli kislotalar karbonatlar, gidrokarbonatlarga ta'sir etganda karbonat angidrid ajralib chiqadi:



Bu reaksiyalarning qisqartirilgan ionli tenglamalari quyidagicha bo'ladi:



Karbonat kislota tuzlarining kuchli kislotalar bilan ta'sirlashuvi reaksiyasi karbonatlar va gidrokarbonatlarni boshqa tuzlar orasidan farqlab olishda qo'llanadi. Karbonatlarning kislotalar bilan ta'sirlashuvida vodorod ionlari bog'lab olinadi, shuning uchun kislotalarni neytrallashtirishda karbonatlardan foydalanish mumkin. Qishloq xo'jaligida tuproqning kislotaliligini pasaytirish va strukturasi yaxshilash uchun maydalangan ohaktosh ishlatiladi (reaksiya tenglamasini mustaqil yozing).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Xo'jalikda (uyingizda) ishlatiladigan karbonat kislota tuzlaridan namuna oling va ular qanday maqsadlarda ishlatilishi haqida ma'lumot bering.
2. Karbonat kislota va uning tuzlarini aniqlash yo'lini ayting.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat kimyo 9-sinf

II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**